

“Uch avlod uchrashuvi” tadbiri to’kin dasturxon atrofida davom etdi



“Uch avlod uchrashuvi” tadbiri to’kin dasturxon atrofida davom etdi

So’zga chiqqanlar mamlakatimizda 30 iyul Xalqlar do’stligi kuni etib, belgilangani ko’pmillatli xalqimizni yagona ahil oila sifatida yanada jipslashtirishga xizmat qilayotganini ta’kidlashdi.

Islahotlar rivoji, taraqqiyot sur’ati avlodlar o’rtasidagi o’zaro bog’liq ezgu rishtalarni mustahkamlash bilan chambarchas bog’liq. Mazkur festivalda ham Surxondaryo viloyatidagi davlat va jamoat arboblari, barcha tarmoqlarda mehnat qilayotgan turli millat vakillari, o’z sohasida katta yutuqlarga erishgan yoshlar bir safda jamlandi. Ularning xizmatlari e’tirof etildi.

El-yurt ravnaqiga munosib hissa qo’shayotgan uch avlod vakillaridan bir guruhiga O’zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xudaybergenov Tursinxan Aydarovich hamda viloyat hokimi Bobolov To’ra Abdievich tomonidan “O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishonlari topshirildi.



